XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASH
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-57-197-3-52-K/23 Paxtakor tuman hokimligi

Paxtakor tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 99-moddasi hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 27 dekabrdagi 01-20-08-01-33/428-sonli xatiga asosan Paxtakor tumanining 2024 yil uchun mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23 qaroriga muvofiq Paxtakor tumani mahalliy budjetining daromadlari 60 229,400 mln.so‘m, xarajatlari 118 933,236 mln.so‘m miqdorda, respublika budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan transfertlar 44 964,393 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun tumanning daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yilda:

a) Quyidagi soliq turlari to‘liq tuman mahalliy budjetida qoldiriladi:

- Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- ijara to‘lovi

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- Noruda qurilish materiallari uchun yer qaridan foydalanilganlik uchun solig‘i;

- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘i;

b) Viloyat budjetiga quyidagilar ajratma me’yorlaridan kelib chiqib to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

- aylanmadan olinadigan soliq;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patentbojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

- ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish yig‘imi va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya

yig‘imidan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

- davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

- mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2021 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan, shuningdek jismoniy shaxslarga tegishli mol- mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)

- foyda solig‘i (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari)

v) Qolgan soliq turlari viloyat, va tuman o‘rtasida ajratma me’yoridan kelib chiqib taqsimot qilinadi.

5.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Nurmuradov),ga O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq

nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

6. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yana-da oshirish uchun 2024 yilda ham qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkasidan kelib chiqib tuman va shaharlar kesimida Xalq deputatlari viloyat Kengashi hududning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash, tuman Xalq deputatlari kengashi viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan 0,7 dan 1,3 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentini belgilash huquqi saqlab qolinadi.

7. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat G‘aznachilik boshqarmasi va uning bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Qonun hujjatlariga muvofiq, moliya yili davomida tuman mahalliy budjetini balanslashtirish jarayonida nazarda tutilmagan (hisobga olinmagan) soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlar kuzatilsa, ushbu tushumlar to‘lig‘icha viloyat mahalliy budjetiga o‘tkaziladi. (Prezident, Oliy Majlis Vazirlar mahkamasi qarorlari va boshqa normativ-quqiy xujjatlar asosida tuman budjetiga yo‘naltirilgan mablag‘lar bundan mustasno)

9. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq tuman mahalliy budjetining 2024 yil uchun daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda respublika budjetidan tuman mahalliy budjetlariga o‘tkaziladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanning

budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

9. Tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Tuman budjetidan 2024 yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. zaxira jamg‘armalari mahalliy budjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2024 yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **1 058,173** mln.so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Tumanlar hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tuman budjeti parametrlarida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

12. Tuman hokimligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish hamda joylardagi dolzarb muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida tashkil etilgan «Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi»ga mahalliy budjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining **11,2** foiziga teng miqdorida mablag‘ rejalashtirilishini ta’minlasin.

Bunda tuman xalq deputatlari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, hokim yordamchilari, yoshlar ishlar agentligining yetakchilari, xotin qizlar bo‘yicha mahalla faollari hamda hokimlik huzuridagi jamoatchilik kengashlari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

13. 2024 yil uchun tuman budjetining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘i miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

14. Tuman budjetida shakllangan qo‘shimcha manbalar moliya yili davomida tegishlicha Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari asosida ishlatilishi belgilansin. Kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni moliyalashtirish holatlari yuzaga kelganda tegishli hokimning qaror va farmoyishlari asosida ishlatilib keyinchalik Xalq deputatlari Kengashiga hisobot berib borilsin.

15. Qonunning 3-ilovasida ko‘rsatilgan viloyat mahalliy budjetining daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy hokimiyatlarning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan takliflari bilan birga tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

16. Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbaa mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

17. Tuman mahalliy budjeti birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilsin.

18. Budjet ijrosining ochiqliligini ta’minlash maqsadida Budjet mablag‘i taqsimlovchilari; har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtiradi.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonov, tuman iqtisodiyot va moliya bulimi (A.Meliboyev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Nurmuradov)larga 2024 yildagi budjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

20. Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

21. Mazkur qaror “Paxtakor hayoti” gazetasida va tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida rasman e’lon qilinsin.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Qodirov hamda tuman xokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi raisi **A.Ashurov**

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
1-ilova

Paxtakor tuman mahalliy byudjetining daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming sumda

T/r	Daromad turlari	Jami	JAMI	73 968 843,0
1	Yakka tadbirkotlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	768 000,0		
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 988 000,0		
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	33 314 400,0		
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 930 000,0		
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	5 060 000,0		
6	Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq	3 448 000,0		
7	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovi	42 000,0		
8	Aksiz solig‘i, jami	955 600,0		
	shu jumladan:			
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	955 600,0		
9	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 140 000,0		
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i	6 518 400,0		
11	Xususiylashtirishdan tushgan tushum	65 000,0		
12	Respublika budjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar	13 739 443,0		
	shu jumladan:			
	Aroqdan aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	5 955 601,0		
	Mobil aloqa xizmatidan aksiz solig‘i	2 398 928,0		
	Tamaki aksiz solig‘i	5 384 914,0		

Xalq deputatlari Paxtakor tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
2-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Noruda qurilish материаллари учун ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Xususiy-lashti-rishdan tushum (Davlat obyekt-larini sotishdan tushum)
1	Paxtakor tumani	90	100	100	100	100	10	70	100	100	100	50

Izoh: * Viloyatga bo‘ysunadigan tuman va shaxar budjetining boshka tushumlari

Xususiylashtirishdan tushgan tushumlar

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
3-ilova

Paxtakor tuman mahalliy budjetining 2023 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so'mda

Hudud nomi	**Jami daromadlar**	**shundan**			**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlar	**O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Paxtakor tumani	118 933 236,0	60 229 400,0	13 739 443,0	44 964 393,0	118 933 236,0

Xalq deputatlari Paxtakor tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
4-ilova

Paxtakor tuman mahalliy budjetining 2024 yil daromadlari rejasi

ming so'mda

Hudud nomi	Jami daromad	shundan			
		O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Soliq rejasi	shundan	
				Shahar va tumanlar mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori	Viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori
Paxtakor tumani	105 353 443,0	13 739 443,0	91 614 000,0	60 229 400,0	31 384 600,0

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024 yilgi Jizzax viloyati Paxtakor tumanining budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko‘rsatkichlar	Paxtakor tuman byudjeti
	Xarajatlar miqdori, Jami	**118 933 236**
1	**Мактабгача ва мактаб таълими бўлим**	**18 614 537**
	Шу жумладан:	
	Maktabgacha ta’limi bo‘limi saqlab turish xarajatlari	11 147 103
	Umumta’lim maktablarini saqlab turish xarajatlari	7 467 434
2	**Sog‘liqni saqlash bo‘limi**	**49 394 829**
	Shu jumladan:	
	Sog‘liqni saqlash bo‘limi saqlab turish xarajatlari	49 394 829
3	**Madaniyat bo‘limi**	**3 571 696**
	Shu jumladan:	
	Madaniyat bo‘limi saqlab turish xarajatlari	1 444 517
	Musika maktabi	2 127 179
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**5 716 999**
	Shu jumladan:	
	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	3 885 308
	Yoshlar ishlari adentligi Paxtakor tuman bo‘limi	1 831 691
5	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**1 792 207**
	Shu jumladan:	
	Markazlashgan buxgalteriya	441 990
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 350 217
6	**Irrigatsiya bo‘limi**	**628 378**
	Shu jumladan:	
	Irrigatsiya bo‘limi saqlab turish xarajatlari	628 378
8	**Kambag‘allikni qisqartishi va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘limi**	**3 320 711**
	Shu jumladan:	
	Kambag‘allikdan chiqarish va aholini bankdligini ta’minlash bo‘limi	2 327 058
	Oila xotin qizlarni qullab quvvatlash bo‘limi	993 653
9	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1 821 092**
	Shu jumladan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 821 092
10	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**11 729 927**
	Shu jumladan:	
	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	7 729 927
	Avtoyul	4 000 000
11	**Tuman xokimiligi**	**18 991 376**
	Shu jumladan:	
	Tuman xokimligi saflash xarajatlari	4 713 199
	Zaxira jamg‘armasi	1 058 173
	Halq deputatlar tuman Kengashi	234 265
	Axborot kutubxona markazi	686 392

	Halq qabulxonasi	174 798
	Ko‘nikma markazi	66 789
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	12 057 760
12	**Tuman Davlat soliq inspeksiyasi**	**3 351 484**
	Shu jumladan:	
	Solik inspeksiyasi	3 351 484

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
6-ilova

Paxtakor tuman tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Paxtakor tumani	**398 000,0**

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (ming.so‘mda)
1	Paxtakor tumani	1,15	45 000,0

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-57-197-3-52-K/23-son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	"Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (so‘mda)"
1	Paxtakor tumani	1,15	329,6